

372.

13-79

BOSHLANG'ICI SINIF O'QUVCHILARIDA
DIZAYNERLIK TAFAKKUR
ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH



TOPIKENT

372.
13-79

BOSHILANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA
DIZAYNERLIK TAFAKKUR
ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH



TOSHKENT

UO'K: 372.864-053.5

KBK 74.200.54

B-79

B-79 Boshlang'ich sinf o'quvchilarida dizaynerlik tafakkur elementlarini shakllantirish. -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 116 bet.

ISBN 978-9943-10-869-1

Mazkur monografiya umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarning dizaynerlik tafakkurini shakllantirishning nazariy asoslari, muammoning o'ziga xosliklari, xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati, dizaynerlik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish muammosining amaldagi holati, uning psixologik jihatlari hamda didaktik asoslari yoritilgan.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodika umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy-estetik tarbiya samaradorligini oshiradi. Biz taklif qilayotgan mehnat ta'limi (tasviriy san'at) darslari zamon talablariga javob beradi hamda o'quvchilarda tabiatga, narsa-hodisalarga hissiy munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ularda ijodkorlik, bunyodkorlik hissiyotlarini uyg'otadi.

Monografiya umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalari bakalavri, magistr bosqichi talabalari, ota-onalar hamda mazkur sohaga qiziquvchi keng omma uchun mo'ljallangan.

XT-ID-1-001 «O'quvchilar dizayn ijodkorligini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini tatbiq etish» innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida tayyorlangan.

Mualliflar: Sh.Q.Mardonov, O.M.Jabborova, Sh.Mardonov, Sh.Axmedova.

Mas'ul muharrir:

Taqrizchilar:

R.H.Djurayev – p.f.d., prof.

S.K.Annamuratova – p.f.d., prof.;

S.S.Bulatov – p.f.d., prof.

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti ilmiy kengashining 2012-yil 30-oktabrdagi 16-sonli qarori bilan nashr etildi.

ISBN 978-9943-10-869-1

Ushbu kitobni qayta nashr etish va uning tarkibini o'zgartirish mumkin emas. Barcha huquqlar saqlanib qolgan.

KIRISH

Inson o'rta ta'lim turgan atrof-muhit bilan dialektik birlikda rivojlanadi. Uning hayoti atrof-borliq hamda o'zi yaratgan narsalar olami bilan bog'lanib ketganligining guvohi bo'lamiz.

Hozirgi zamonaviy sharoitda atrof-muhit, narsalar olamining ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda va u insonning dunyo-qarashi hamda badiiy-estetik olamiga, eng muhimi, uning ongi-tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

Bola ongining shakllanishi va rivojlanishida uning atrofini o'rta ta'lim narsalarining ta'siri ortib bormoqda. Bolaning yoshligida unga atrof-muhitning ta'siri o'z-o'zidan, stixiyali kechadi, lekin bola bu ta'sirni ma'lum darajada ilg'aydi, sezadi ham.

Mutaxassislarining ta'kidlaricha, hozirgi zamonaviy sharoitda bolaga (o'quvchiga) yoshligidanoq kam bo'lsada, inson faolligini o'rta ta'lim narsalar olamining texnik estetikasi (dizayn) to'g'risida tushunchalar berib borish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchi-yoshlarga dizayn to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish va o'quvchilar dizaynerlik tasavvur elementlarini shakllantirish bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablarida «Mehnat ta'limi» (1-9-sinflar), «Tasviriy san'at» (1-7-sinflar), «Chizmachilik» (8-9-sinflar) fanlarining imkoniyatlari ancha keng.

Hozirgi kunda ta'limga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bo'yicha o'quvchini unifikatsiyalashirilgan (birlashtirilgan) bilim va amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish, uni sinfdan-sinfga oshirib borish kamlik qilmoqda. Hozirda o'quvchining qo'l bilan ishlash ko'nikmasi, uning texnologiyasini bilishi o'quvchi uchun faqat vosita vazifasini o'tashi mumkin, xolos, uni maqsadga aylantirish uchun esa o'quvchining ancha ter to'kib, mehnat qilishiga to'g'ri kelmoqda.

Qo'l mehnati o'quvchining estetik tuyg'usi, qiziqish hissini, ongi hamda ijodiy kuchini rivojlantiruvchi vosita bo'lib xizmat qilishi lozim.

O'quvchining dizaynerlik tafakkurini shakllantirish, uning badiiy konstruktorlik – badiiy loyihalash faoliyati jarayonida sodir bo'ladi. Dizayn ijodkorligi elementlarini boshlang'ich sinflarda shakllantirib borib, uni o'rta va oliy ta'limda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Dizayn ijodkorligini umumiy o'rta ta'lim muassasalarida olib borish maqsadga muvofiq, ya'ni ayrim maktab o'quvchilarini kiyim tikish dizayniga, ayrimlarini soch turmaklash dizayniga, ayrimlarini bichish-tikish dizayniga, ayrimlarini uy interyeri va hokazolarga qiziqtirib borish maqsadga muvofiq. Kelajakda shunday tizimga kelishimiz muqarrar. Masalan, Rossiya maktablarida shunday amaliyot keng qo'llanilmoqda.

Mavzu yuzasidan qator adabiyotlar bilan tanishildi, tahlil qilindi. Dizayn ijodkorligi muammosi bo'yicha yozma manbalarning ko'rsatishicha, pedagogika nazariyasi va amaliyoti ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni, ya'ni o'quvchilarning yangi tipdagi tafakkurini shakllantirish vazifasini qo'yimoqdaki va buni «dizaynerlik tafakkuri», deb atashmoqda. Xo'sh, tafakkur nima? Dizaynerlik tafakkurichi?

Ushbu tushuncha ancha murakkab bo'lganligi uchun uning atroflicha keng talqinini O'zbekiston milliy ensiklopediyasidan oldik: «**Tafakkur** – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur – inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalangani. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasini kengaytib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson o'zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida

o'zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqqoniyligini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bavoosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega.

Tafakkur ko'pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, pedagogika, fiziologiya, kibernetika, biologiya)ning tadqiqot obyektini hisoblanadi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarining inson uchun yangiligi, shaxsning faollik ko'rsatish darajasiga ko'ra bir necha turlarga (ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali obrazli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va b.k.) ajratib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo'ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o'zini-o'zi tanqid, baholash, tekshirish, o'zini-o'zi tekshirish, nazorat qilish, o'zini-o'zi nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatleri vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok qilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, tadqiqotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Psixologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo'lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarni ham o'rganadi. Hozirgi zamon fanining juda ko'p murakkab munosabatlari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda»¹.

Tafakkur – inson aqliy faoliyati va ongli xatti-harakatlarining yuksak shakli hisoblanib, ijtimoiy muhitni, mavjud jarayonlarning vujudga kelish sabablarini va voqelikni anglash vositasi, shuningdek, barcha insonlarning ehtiyojlarini qondirish yo'nalishidagi

larning ishlarida; B.B.Qodirovning izlanishlarida tasviriy san'at vositasida tarbiyaning turli tomonlari ko'rsatilgan; S.K.Annamuratova, S.X.Fayzulinarning monografiyalarida san'at asarlarini o'rganishning metodologik jihatlari; N.Kevish, R.Muhamedova, A.Sulaymonov, N.Svichinskayalarning tadqiqotlarida badiiy idrok muammolari yoritilgan; munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi (O.Musurmonova, M.Xolmatova), tarbiyaning psixologik muammolari (G.Shumarov, E.G'oziyev, V.Karimova, N.Sog'inov) va pedagogik masalalari (A.Munavvarov, M.Inomova, D.Xoliqov) olimlarimiz tomonidan keng qamrovli tadqiq etilgan. Shuningdek, olimlarimizdan Sh.S.Sharipov, N.A.Muslimov, S.S.Bulaningdek, o'qituvchilarning ixtirochilik ijodkorligi, texnik loyihalash va tarixi, talabalarning ixtirochilik ijodkorligi, texnik loyihalash va modellashtirish kabi muammolar yechimi bilan shug'ullanganlar.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ta'lim sifat va samaradorligini mavjud talablar darajasida ta'minlash yo'lida amaliy faoliyat olib borilmoqda. Mustaqillik yillarida bu borada muayyan yutuqlarga erishildi. Chunonchi, barkamol shaxs malakali mutaxassisni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarining ilmiy asoslari yaratildi, yangi mazmun va yo'nalishda faoliyat yurituvchi uzluksiz ta'lim tizimi shakllantirildi. Bu borada quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan va tartibga soluvchi davlat ta'lim standartlari hamda ta'lim va o'qituvchilar bilimlari sifatini nazorat qiluvchi ko'rsatkichlar, nazorat tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarini yangi o'quv, o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash muammosini hal etish maqsadida yangi o'quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodi yaratildi, ayrim darslik va dasturlar qayta ko'rib chiqilmoqda;
- barcha gumanitar fanlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarni sintez qilish asosida pedagogik ta'lim mazmuni yangilanmoqda;

faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi fikrlar, g'oyalalar va qarashlar natijasida vujudga kelgan xulosa va qabul qilingan qarordir.²

Dizaynerlik tafakkuri – bu buyum, predmet, narsa va hokazolarning go'zallik va garmoniya qonunlariga amal qilgan holda har bir buyumda uning foydasi va go'zalligida ko'rishi, fikrlashi tushuniladi. Buyumning foydaliligini inkor etib bo'lmaydigan haqiqat bo'lsa-da, uning go'zal sifatleri ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Inson o'z ongi, tafakkuri, ijodiy faoliyati asosida o'zida narsa-hodisalarga estetik munosabatni shakllantirishi mumkin.

Badiiy konstruktorlik yoki badiiy loyihalash – mahsulotlarni, narsalarni (predmet, buyum va hokazolarni) loyihalashda go'zallik va garmoniya qonunlariga amal qilishdir.

Mehnat, tasviriy san'at, chizmachilik darslarida boshlang'ich hamda yuqori sinf o'quvchilarining dizaynerlik tafakkur elementlarini ma'lum pedagogik, estetik shart-sharoitlarda shakllantirib va rivojlantirib borish mumkin.

Ushbu muammoning yechimiga tadqiqot jarayonida javob izladik va quyidagilarni bilib oldik.

Badiiy ijodkorlikning falsafiy tomonlari A.A.Adamyan, D.Blagojev, A.I.Buyev, G.D.Gachev, M.S.Kagan, N.I.Kitlenko, V.P.Kopin, N.L.Leyzerov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Muammoning psixologik tomonlarini R.Arnexym, V.S.Meylov, A.Peyper va boshqalar tadqiq qilishgan.

Mavzuning pedagogik jihatlari V.V.Alekseyeva, N.A.Dmitriyeva, N.M.Zubarev, A.A.Melik-Pashayev, N.N.Fomina, V.S.Herbakova va boshqalar ko'rsatib berishgan.

Badiiy-estetik faoliyatning ta'lim va tarbiyaga ta'siri to'g'ri haqida N.P.Azarov, D.N.Djola, B.T.Lixachev, Z.I.Kalmokov, G.P.Kalshin va boshqalarning tadqiqotlari mavjud.

O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiyada o'quvchi-yoshlarni estetik, nafosat ruhida tarbiyalash masalalari ham mamlakatimiz olimlarining diqqat markazida bo'lgan. Xususan, o'quvchilarni badiiy qadriyatlar bilan tanishtirish jarayonida estetik tarbiyalash A.Mo'minov, M.Aliyev, S.Shermuhammedov-

² Hasanbayev va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: «Fan va texnologiya», 2009. 490-b.